# GMO-nishonlarni aniqlovchi PZR reaktivlar to’plami ishlab chiqildi

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-iyuldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli, 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5303-sonli, 2017-yil 15-dekabrdagi “Eksportni rag’batlantirish va tashqi bozorda mahalliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minlash to’g’risida”gi PF-5286-sonli farmonlari hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-maydagi “Biologik xilma-xillik haqidagi konvensiyaning bioxavfsizlik bo’yicha Kartaxena protokoli (Monreal, 2000-yil 29-yanvar) qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 275-sonli qaroriga binoan O’zR FA Immunologiya va inson genomikasi institutining Genom-hujayra laboratoriyasi “ROSSA” biotexnologiya kompaniyasi bilan birgalikda GMO-nishonlarga PZR reaktivlar to’plamini ishlab chiqdi va ularning pilot partiyalari ishlab chiqarildi. Mazkur mahsulotlar bozordagi xorijiy analoglari bilan sergirligi bir xil, o’ziga xosligi 20 foizga arzon.

Real vaqtda GMOlarni aniqlash uchun ishlab chiqilgan PZR to'plamlar (barcha PZR moslamalari bilan mos keladi – CFX, DT-prime, Rotor gene, Q-tower) barcha muhim, xalqaro miqyosda tan olingan GMO nishonlar uchun:

- rangli karam mozaika virusining asosiy GMO tarkibiy qismlarining promotorlari, norichnik mozaika virusi promotori, napolin sintetaza genining terminatori;

- gerbitsidga qarshilik ko'rsatadigan genlarni aniqlash.

Turlari bo’yicha alohida GMO aniqlash uchun: GMO makkajo’xori, GMO soya, shu jumladan, soya uchun alohida liniyalar.

Ishlanmalarning raqobatbardosh afzalliklari: GMO nishonlarga bo’lgan xalqaro talablarni, shuningdek, mahsulot sifati va GMO nishonlari spektrini doimiy nazorat qilish, validatsiya (tekshirish), modifikatsiyalashlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, tahlil paytida materiallarni yo’qotishlar oldi olinadi. Test narxi – bir xil sifatda jahon analoglaridan sezilarli darajada past (20%); oddiy va tezkor PZR protokoli.